

EVFEMIK VA DISFEMIK BIRLIKLARNING MA'NO MUNOSABATI VA MA'NO QAMROVI ASOSIDAGI TIPLARI

Xurshida Botirovna KADIROVA

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili kafedrasida

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O'zbekiston

ТИПЫ ЭВФЕМИЧЕСКИХ И ДИСФЕМИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ НА ОСНОВЕ СМЫСЛОВЫХ ОТНОШЕНИЙ И ОБЪЕМА ЗНАЧЕНИЯ

Хуршида Ботировна КАДИРОВА

Кандидат филологических наук, доцент

Кафедра преподавания узбекского языка в иноязычных группах

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы

имени Алишера Навои

Ташкент, Узбекистан

TYPES OF EUPHEMIC AND DYSPEMIC UNITS BASED ON MEANING RELATIONS AND SCOPE OF MEANING

Khurshida Botirovna KADIROVA

Candidate of Philological Sciences, Associate Professor

The Department of Teaching the Uzbek Language in Foreign Language Groups

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoiy

Tashkent, Uzbekistan qodirova@navoiy-uni.uz

UDC (UO'K, УДК): 81'373.42

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Kadirova X. B. Evfemik va disfemik birliklarning ma'no munosabati va ma'no qamrovi asosidagi tiplari. // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 6 (53). — B. 60-77.

<https://doi.org/10.36078/1703660236>

Received: September 17, 2023

Accepted: October 04, 2023

Published: Desember 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Maqolada evfemik va disfemik birliklarning tasnifi borasida fikr yuritilib, uning ma'no munosabati hamda ma'no qamroviga ko'ra tasnifi yoritilgan. Nutqiy hodisaning lisoniy tahlili o'zbek adibi Abdulla Qodiriy asarlaridan olingan misollar orqali amalga oshirilgan. Evfemik va disfemik birliklarning nutqiy voqelanishi, xususan, ijtimoiy-siyosiy diskursdagi roli, gender xoslanishi, psixologik-lingvokulturologik aspektlari o'rganilgan bo'lib, lisoniy tavsifi ayrim ishlardagina ko'zga tashlanadi. Shu ma'noda maqola, asosan, lingvistik ahamiyatga ega. Evfemik va disfemik omonimiya, sinonimiya, antonimiya, shuningdek, monosemantik va polisemantik evfema va disfemalar o'zbek tilshunosligida ilk bor o'rganilgan bo'lib, muallif bu hodisalarni misollar bilan asoslaydi. Metaforik, metonimik, sinekdoxik va vazifadoshlik asosida ma'no ko'chgan birliklarning evfemik va disfemik xoslanishi haqida o'z fikrlarini bildiradi. Bunda o'zbek tilining evfemik va disfemik ma'noli birliklar borasidagi keng imkoniyati ochib beriladi. Evfemizmlarga nisbatan disfemizmlar kam ekanligi ma'lum bo'lib, disfemizm evfemizm bilan munosabatdosh bo'lganligi sababli maqolada ularning tasnifida ham evfemizmlar tasnifidagi ayrim belgilar tayanch bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra evfemik va disfemik vositalarning semantik ko'lamdorligi, ma'noviy xilma-xilligi tasnif jarayonida

muayyanlashgan. Maqolada mazkur hodisa ilmiy xulosalangan.

Kalit soʻzlar: evfemizm; disfemizm; evfemik omonimiya; disfemik omonimiya; evfemik sinonimiya; disfemik sinonimiya; evfemik antonimiya; disfemik antonimiya; monosemantik evfema; monosemantik disfema; posemantik evfema; polisemantik disfema.

Аннотация. В статье рассматривается классификация эвфемических и дисфемических единиц, поясняется их семантическая связь и классификация по объему значения. Лингвистический анализ речевого феномена анализируется на примерах из произведений узбекского писателя Абдуллы Кадыри. В литературе изучена речевая реализация эвфемических и дисфемических единиц, в частности их роль в общественно-политическом дискурсе, гендерные характеристики, психолого-лингвокультурные аспекты, а лингвистическое описание просматривается лишь в некоторых работах. Статья посвящена изучению указанных единиц преимущественно лингвистически. Эвфемическая и дисфемическая омонимия, синонимия, антонимия, а также однозначные и многозначные эвфемизмы и дисфемизмы изучаются впервые в узбекском языкознании, и автор обосновывает эти явления примерами. Он высказывает свое мнение об эвфемистической и дисфемической характеристике единиц, значение которых передается на основе метафоры, метонимии, синекдохи и функционального подхода. При этом раскрываются широкие возможности узбекского языка в плане эвфемических и дисфемических смысловых единиц. Известно, что число дисфемизмов мало по сравнению с эвфемизмами, и поскольку дисфемизм родственен эвфемизму, некоторые признаки классификации эвфемизмов служат основой для классификации дисфемизмов в статье. По результатам исследования в процессе классификации уточнены семантический объем и смысловое разнообразие эвфемистических и дисфемических средств.

Ключевые слова: эвфемизм; дисфемизм; эвфемическая омонимия; дисфемическая омонимия; эвфемическая синонимия; дисфемическая синонимия; эвфемическая антонимия; дисфемическая антонимия; моносемантический эвфемизм; моносемантическая disfema; polisemanticheskii evfemizm; polisemanticheskaya disfema.

Abstract. The article discusses the classification of euphemic and dysphemic units, explains their semantic connection and classification according to their meaning. It deals with the speech implementation of euphemic and dysphemic units, in particular, their role in socio-political discourse, gender characteristics, psychological and linguistic-cultural aspects. Euphemic and dysphemic homonymy, synonymy, antonymy, as well as single-valued and polysemantic euphemisms and dysphemisms are studied for the first time in the Uzbek linguistics, The author substantiates these phenomena based on the works of the Uzbek writer Abdulla Kadiri; provides opinion on the euphemistic and dysphemic characteristics of units, the meaning of which is conveyed on the basis of metaphorical, metonymic, synecdochic and functional. At the same time, the wide possibilities of the Uzbek language are revealed in terms of euphemic and dysphemic semantic units. It is known that there are few dysphemisms compared to euphemisms, and since dysphemism is related to euphemisms, some features of the classification of euphemisms serve as the basis for their classification in the article. Based on the results of the study, the semantic scope and semantic

diversity of euphemistic and dysphemic means were clarified in the classification process. This phenomenon is scientifically summarized in the article.

Key words: euphemism; dysphemism; euphemistic homonymy; dysphemic homonymy; euphemic synonymy; dysphemic synonymy; euphemic antonymy; dysphemic antonymy; monosemantic euphemism; monosemantic dysphema; polysemantic euphemism; polysemantic dysphema.

Kirish. Evfemik va disfemik ma'noli birliklar, asosan nutqiy hodisa bo'lganligi sababli, adiblar nutqida individual hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun so'z san'atkorlarining asarlarida qo'llangan bunday evfemik va disfemik ma'noli birliklarni individual nutqning tarkibiy qismi sifatida maxsus tadqiq qilish alohida ahamiyatga ega.

Evfemizm o'zbek tilshunosligida disfemizmga nisbatan kengroq o'rganilgan bo'lib, bugungi kunga qadar ko'plab olimlar tomonidan evfemizmning nutqiy qatlam sifatidagi xususiyatlari sistemali tadqiq etilgan. Disfemizmga O.S. Axmanovanning "Словарь лингвистических терминов" lug'atida qisqacha izoh berib ketiladi (2, 68).

Disfemizmning bu qadar kam o'rganilganligi, uning faqat evfemizm xususida so'z borganda yo'l-yo'lakay tilga olinib ketilganligi nutqiy me'yor, nutqiy madaniyat, lisoniy mezonlar nuqtai nazaridan uni o'rganishga ehtiyoj sezilmaganligi bilan belgilanadi. Disfemizmlar tasnifi tilshunoslik sohasida ayrim ishlardagina amalga oshirilgan. Masalan, ingliz tilida disfemizm leksik-semantik jihatdan quyidagicha tasnif qilinadi: o'lim, kasallik, jismoniy va ma'naviy nuqsonlarni bildirib keluvchi disfemizmlar; keng doiradagi jinoiy guruhlar bilan bog'liq disfemizmlar; inson nuqsonlari bilan bog'liq disfemizmlar; millatga mansub disfemik nomlar; xudo, iblis (shayton), cherkov marosimlari bilan bog'liq disfemizmlar (17, 20).

Disfemizm – denotat bahosiga munosabatning salbiy tomonga ketishi bilan bog'liq pragmatik hodisa. Disfemizm evfemizm bilan munosabatdosh bo'lganligi sababli ularning tasnifida ham evfemizmlar tasnifidagi ayrim belgilar tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiq davomida evfemizmlarga nisbatan disfemizmlar kam ekanligi aniqlangan va shu jihatdan uning mavzuviy guruhlari doirasi ham asosan so'kish, haqorat, qarg'ish, kinoya, masxara tushunchalarini ifodalovchi birliklar bilan chegaralanadi: 1) so'kish va haqoratni ifodalovchi disfemizmlar: «*aqli qisqa*», *aqli tushdan keyin kirgan, it emgan, it, itbachcha, itlanish, it-mushuk*; 2) qarg'ish anglatuvchi disfemizmlar: *aptidan buzilsin, joyi jahannamdan belgilanadir, ikki yuzi qaro bo'lsun, harom qotsin, go'rso'xta*; 3) masxara, kinoya anglatuvchi disfemizmlar: *qo'tir itning keyingi oyog'i, bo'g'oz*.


Evfemizm tilning nutqiy qatlamida sodir bo'ladigan jarayon — qayta nomlash bilan bog'liq hodisa bo'lib, to'la ma'noda uslubiy ma'nodoshlik qatorini tashkil etish bilan xarakterlanadi. U millatning etik-estetik didi, milliy ruhi, odobi va nazokati bo'lib, muomala

madaniyatining o‘ziga xosligini aks ettiradi. Evfemizmlarning “dabdabali” (tananavor), “hurmat-ehtiroimli”, “ko‘tarinki” ma’no ottentalari bilan badiiy, ilmiy, so‘zlashuv uslubida qo‘llanilishi tilning keng imkoniyatidan dalolat beradi. Ayniqsa, o‘zbek tilida o‘lim bilan bog‘liq evfemik vositalarining 300 ga yaqin varianti topilganligi muhim ahamiyatga ega (11, 45). Bu esa ularning turli vaziyat, matn va zamonda qo‘llanilishga xoslangan turidan foydalana olish imkonini beradi, shuningdek, nutqning sayqallanishiga olib keladi. Shu ma’noda, uni leksik sathda tahlilga tortish, yangi qirralarini kashf etish maydoni ochiladi. Uning uyadoshlar, ma’nodoshlar, shakldoshlar, ziddiyat qatorlari kengayib, ularning ayrimlari maqolada tadqiq etilgan.

Asosiy qism. Inson hayotida yuz beradigan barcha jarayon, hodisa, shaxslarning “birlamchi nom o‘rnida qo‘llanadigan evfemistik ifodalari mavjud, ular tilda mavjud nomlarning funksional-semantik sinonimlari” (18, 22–25) sifatida qo‘llaniladi. Xususan, o‘zbek nutqining bu kabi “tutqich bermas” ifodalari benihoya ko‘pligi, konnotativ sathning o‘zgaruvchanligi, yumor, kinoya usullarining o‘ziga xosligi diqqatga sazovor.


Evfemik sinonimiya. Buyuk so‘z ustasi, o‘z davrining mashhur felyetonchisi, yozuvchi Abdulla Qodiriyning publitsistik maqolalari o‘sha davrlardayoq kishilar e’tiborini qozonishi sababi uning so‘zga “to‘n kiydira olish” mahorati, xususan, evfemizmlardan foydalana olish san’atida desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning qalamiga mansub asarlar muayyan ma’noda evfemizmlardan iborat majmua kabi ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi.

O‘lim bilan bog‘liq evfemalar adib ijodida quyidagi sinonimik qatorni tashkil etadi:



Evfemik tushuncha	Evfemik vosita
O‘lmoq	<i>boshini olmoq</i> <i>bu dunyoi foniydan vido‘ qilmoq</i> <i>dunyo bilan vidolashmoq</i> <i>dunyodan ketmoq</i> <i>dunyodan ko‘chmoq</i> <i>dunyodan o‘tgan</i> <i>joyi jannatda bo‘lmoq</i> <i>jon bermoq</i> <i>qazo qilmoq</i> <i>qaro tuproqqa qo‘shilmoq</i> <i>qulog‘i ostida qolmoq</i> <i>mangulik uyqusiga ketmoq</i> <i>saodat quchog‘iga kirmoq</i> <i>so‘nggi soati yetmoq</i> <i>tobutga olinmoq</i> <i>yoshini yashab oshini oshamoq</i>

“O‘lmoq” tushunchasining evfemalarini adib qahramon yoki o‘z tilidan turli vaziyat va shaklda ifodalaydi. Salbiy yoki hajviy qahramon nutqidan ijobiy, madaniyatli obraz nutqi farqlangani bois, o‘z navbatida, evfemik ma’nolar ham bir necha turga ajraladi. Ma’lum guruh kishilarigagina tushunarli bo‘lgan argotik evfema, shu voqelikka aloqador suhbatdoshgagina ma’lum qarg‘ish, haqoratni aks etuvchi evfemik birliklar farqlanadi. Bular sinonimik qatorni tashkil qilgan bo‘lsa-da, biroq birlamchi ma’no bilan ko‘chim orasidagi bog‘liqlik ma’lum ma’noda uzilganini kuzatish mumkin:



N.M. Potapovanning fikricha, salbiy emotsiyani yumshatish uchun qo‘llanilayotgan evfemizm denotat bilan aloqani uzsa, u evfemizm emas, balki haqiqatni buzishga urinishdir (16, 108).

Dastavval, o‘lim bilan bog‘liq evfemalar mazmuniga ko‘ra diniy va dunyoviy evfemalarga ajralgan. Tilshunos A. Omonturdiyev “diniy evfemalar ko‘proq jonning mavjudligi, tanadan chiqib ketishi, u dunyoga — Xudo huzuriga borishi, jannat yoki do‘zaxdan joy olishi kabi tushunchalar asosida paydo bo‘lgan”ligini ta’kidlaydi (13, 65). Shu kabi *jon bermoq*, *ajalga omon bermoq*, *mangulik uyqusiga ketmoq* kabi dindorlar nutqiga xos evfemik ma’noli birliklar yozuvchi Abdulla Qodiriy ijodidan o‘rin olgan: *Bu kunimdan, bu hasratimdan qutulish uchun o‘zimga ajal chaqiraman* (O‘K – 163).


Davr o‘tishi bilan bir guruh evfemalarning dunyoviy lashgani xususida ham tilshunos o‘z fikrlarini bayon etgan. Ayni guruhga adibning *so‘nggi soati yetmoq*, *qazo qilmoq*, *qirilib bitmoq*, *qirilmoq*, *jon bermoq* kabi adibning evfemik ma’noli birliklari kiritiladi. Shuningdek, *bosh* leksemasi bilan birikkan *ket-*, *ol-* kabi fe’llar ham “o‘lmoq” tushunchasini ifodalovchi evfemizmlardir: 1. *Oq podshohni o‘rnidan tushurub bo‘lar emish? Yaxshikim bu so‘zni menga aytding, yomonroq kishiga aytsang boshing ketadir — boshing!* (9, 80). 2. *Shu topgachaku xomcho‘t qilib ko‘rsang, o‘n bir kalimago‘yning boshini olibman, ikkita o‘rusvoyingni saranjom qilibman; armani bilan pursiyonangdan (forslar) hazrati Bahoviddin bo‘libdir.* (9, 280)

Ma’lumki, qarg‘ish va haqoratlarda “o‘lmoq” tushunchasini bergan ifodalar tinglovchi yoki o‘quvchida salbiy kayfiyat uyg‘otadi. Shu ma’noda, har qanday ifoda agar haqorat, qarg‘ish shaklida tinglovchiga nisbatan yo‘naltirilsa, qo‘pol munosabat, ruhiy tushkunlik, kayfiyatdagi o‘zgarish — antipatiyani uyg‘otadi. Bu esa disfemiya kabi qabul qilinadi. Biroq *o‘l* so‘zi doirasidagi *ikki yuzing qaro bo‘lsun*, *joying jannatda bo‘lsin* kabi ifodalar haqiqatda

evfemik ko‘rinishda ekanligini ta’kidlash joizki, ular ma’noni o‘l so‘ziga nisbatan birmuncha yopiq, berkitilgan shaklda ifodalagan.

Disfemik sinonimiya. Ma’lumki, siyosiy tushunchalar muhit bilan bog‘liq holda nafaqat evfemik, balki disfemik shaklda xalq nutqida, qolaversa, Abdulla Qodiriy asarlarida o‘z aksini topgan. Ifoda evfemik xususiyatiga ega bo‘lgani holda ba’zan ular qo‘shirnoq ichida berilgani kuzatiladi. Bu esa ularning, o‘z o‘rnida, teskari mazmuni ifodalashini ko‘rsatadi. “Semantik nuqtai nazardan disfemizm denotatni salbiy munosabat asosida atashni o‘zida aks etiradi” (17, 20). Masalan, adib salbiy munosabatini ifodalash maqsadida xonning o‘zini obrazlar nutqidan turli disfemik birliklar (*adolatpanoh*, *soyaboni marhamat*) orqali ifodalaydi: *Hayhot, bu razolatni Anvarning nafsi hazm qilolmag‘anidek, «adolatpanoh»ning ham bu to‘g‘rida “marhamat”lari shubhalik.* (MCh – 205). Bu o‘rinda matn mohiyatidan kelib chiqib e’tirof etish mumkinki, *adolatli emas* ma’nosi ifodalangan. **“Soyaboni marhamat”** *viydon kengashiga quloq solg‘uchi “ahmoq”lardan emasdir.* (MCh – 57) gapida Xudoyorxonning soyaboni marhamatligi shubha tug‘dirishi nashrda qo‘shirnoq ichida berilganligi bilan belgilanayotir.

Xudaychi qulluq qilgan ko‘yi orqasi bilan yurib, birinchi xonaning dahliziga keldi va dahlizda kutib turg‘an Anvarni huzuri muborak sari yo‘lg‘a soldi. (MCh – 74) Bu jumlada Anvarning xon huzuriga borayotganligi tufayli *huzuri muborak* disfemik birligidan o‘z o‘rnida foydalanilgan. Shuningdek, adibning Xudoyorxonga tegishli *janobi oliy* disfemik birligi ham matn ichida vaziyatga bog‘liq holda keladi: *Xon hali ichki o‘rdadan chiqmag‘an, hamma ra’iyat «janobi oliy»ni kutib muhtasham darbozaga ko‘z tikkanlar edi* (MCh – 146).



Demak, adibning disfemik birliklari kinoyaviy asosda bo‘lib, nashrda qo‘shirnoq ichiga olinishi bilan ham xarakterlanadi. Masalan, *Soyaboni marhamat* qo‘shirnoqsiz evfemik vosita bo‘lishi mumkin edi. Evfemizmda so‘zlovchi fikrida ijobiy munosabatni hosil qilish yoki salbiy munosabatni yumshatish mavjud bo‘ladi. Aynan shu munosabat disfemizm va evfemizmni farqlash uchun asos bo‘ladi. Xususan, bu siyosiy shaxs bilan bog‘liq tushunchalarda o‘z aksini topgan.

Abdulla Qodiriyning ma'naviy nuqsonlarni anglatuvchi disfemik birliklari ham sinonimik qatorni tashkil etishi mumkin. Jumladan, *aqli qisqa, aqli tushdan keyin kirgan, po'kak bosh* kabi ifodalar obraz nutqida salbiy kayfiyatni uyg'otuvchi disfemizm sifatida qaraladi.

Zid ma'noli evfemizmlar. "Evfemik ma'noga mezon va me'yor belgilanmasdan, uni (evfemizmi) yondosh, o'xshash, turdosh, jinsdosh hodisalaridan farqlab yoki chegaralanasdan yangi bir soha bo'lgan evfemiologik tadqiqotni amalga oshirib bo'lmaydi." (12, 45) Biroq evfemizmining ayrim badiiy-tasviriy vositalar bilan birga antonimik holati ham o'rganishga loyiq bir hodisadir. Umuman olganda, mazkur tadqiqot yetuk ijodkor tili va uslubi bo'yicha kuzatilar ekan, bunday nazariy hodisalarning muayyan ma'noda o'rganilishi uchun yetarlicha materialga ega bo'lish ahamiyatli. Abdulla Qodiriy iqtidorining ko'pqirraligi uning evfemik ma'no yuklagan ifodalari orasida zid ma'nolilari mavjudligi bilan belgilanadi.

Fursati kelishi bilan yana bir yomonliq qilmoqqa qutidorning qizini o'ziniki etishga o'ylab yuradir (O'K – 228). Bu gapdagi *o'ziniki etmoq* evfemizmi "o'ziniki etmaslik, o'zidan soqit qilmoq" tushunchasiga antonim munosabatda bo'ladi. Demak, "taloq qilmoq", "ajramoq" mazmunini beruvchi *tinchitmoq* evfemik birligi *o'ziniki etmoq* birligiga nisbatan zid ma'noli. – *Sen tinchitmasang, – dedi Xushro'y, – boshqalar seni tinchitar* (O'K – 362).

Qo'shtirnoq ichida berilgan ifodalari teskari mazmun berishi ham o'quvchiga ayon. Bu, o'z-o'zidan, ma'lum tushuncha ifodalovchisiga zid ma'no yuklaydi. Masalan, "*husni Yusuf*" ifodasi Yusufning juda go'zalligini bildiribgina qolmay, matndan ajratib qo'shtirnoq ichida berilganligi tasvirlanayotgan obrazning aksincha *xunuk, badbashara* ekanligiga ishoradir. Abdulla Qodiriyning kichik hajviy asarlarida uchraydigan ayollarga nisbatan ishlatiladigan *mushfiqa, ojiza, karima* so'zlariga nisbatan qo'shtirnoqda berilgan "*mushtipar*", "*mushfiqa*" ifodasi ham xuddi shunday antonim munosabatda bo'ladi. Qiyoslaymiz:

1. *O'shal kundan boshlab ul mushfiqa atrof javonibga azbaroyi sovchilik uchun yurganlarida faqirg'a muvofiqut-ta'b bir nozanin topilmas erkan* (9, 327).

2. *Albatta, bu mushtiparlarning ko'ngillarini olmoq har bir belida belbog'i bor bo'lg'an kishining vazifasidir* (9, 173).

Shuningdek, *afifa* (bokira qiz) hamda *buzilgan* (bokira emas) evfemik birliklari o'zaro zid ma'noli ifodalardir: *Shariat ishiga sharm yo'q, deydirlar o'rtoq, agarchi siz bilan menga bir muncha og'irroq bo'lsa ham yana so'zlab o'tishga hojat bor: kunlardan bir kun taqdir shamoli yuradir-da bir kimsaning iffat pardasi ostida o'ltirgan qizining yuzidagi niqobini ko'tarib ikkinchi tomondan bizning Otabekni shu afifaga ro'baro' qiladir. Shu daqiqadan boshlab bekda u afifaga qarshi bir ishq, ham chin bir ishq tug'iladir...* (O'K – 40); *Qizi tushkur jajmondekkina ekan. Hayfki buzilg'anda...* (9, 299).

Bugungi kunga qadar o'zbek tili evfemizmlarini tasniflash bo'yicha tilshunos olimlar tomonidan anchagina ishlar qilingan (2; 3; 4; 5; 12; 14). Uning mavzuviy guruhlari keng. Masalan, oila qurish, axloqsizlik, jinsiy aloqa, murojaat bilan bog'liq evfemik vositalar, insonning aytish uyat bo'lgan a'zolari va ular bilan bog'liq kiyim nomlari evfemasi, jinsiy va jismoniy nuqsonlar bilan bog'liq evfemik vositalar, ovqatlanish va uning hazmi bilan bog'liq evfemik vositalar, insonning salbiy faoliyati, ayrim odat-an'ana, qarilik tushunchasi bilan bog'liq evfemik vositalar shular jumlasidandir (14, 176).

Zid ma'noli disfemik birliklar. Adib bir gapning o'zida ikki disfemik ifodani antonimik munosabatga qo'yganligini kuzatish mumkin: *Bu yerdagi bolalari ahvollaridan so'rasalar, alhamdulillah, ular ham erkagu urg'ochi, bo'g'ozu qisr degandek o'ynab-kulib yuriydirlar* (9, 219).

Hayvonlarga nisbatan ishlatiladigan *bo'g'oz* so'zi adib tilida insonga ko'chadi, shu o'rinda "qisr" deya ayni ifodaning antonimik ("tug'magan") shaklini berib, ifoda ta'sirini kuchaytiradi

Evfemik omonimiya. Bir ifodaning o'zini turli shakllarda ifodalash, albatta, nutq uchun qulaylik yaratadi. Biroq so'z ustasi Abdulla Qodiriy iqtidori bu bilan chegaralanmay, bir ifodaning o'ziga turli mazmun yuklab o'zbek tilining ajoyib qirralarini namoyon etadi. "O'tkan kunlar" asari qahramoni Yusufbek hojining "*nega har narsaga yetgan aqling, shunga kelganda oqsaydir*" degan iborasining o'ziyoq adibning milliy madaniyatdan anchagina xabardor ekanligidan dalolatdir. "Ahmoq" ifodasi o'rnida "oqsaydir" so'zi shu qadar nozik qolipga keltirilganki, so'zlovchi og'zidan chiqayotgan ayni jumlada biror qo'pol munosabat sezilmaydi. Biroq "oqsamoq" ifodasining "Nega? Kim?" deb nomlanuvchi felyetonida ham takrorlanishini kuzatamiz. "*Ishtirokiyun*" gazetasi bir kun chiqub, bir kun chiqmay *oqsay boshladi*" (9, 73). Ya'ni "oqsamoq" — ishi yurishmaslik, omadsizlik mazmunida. Bu yerda evfemik omonimiyani hosil bo'lishini ko'ramiz.

Yana misol,

qo'lga olinmoq I. (evf. — ko'chimi: qamalmoq, hibsga olinmoq) *Xalq va askar bir bo'lib, hukumatni o'rindan tushirgan, hamma ish xalq qo'lga o'tkan, hukumat ma'murlari o'rindan tushurilib, qo'lga oling'an, ministrilar ham hib etilgan, podsho ham qamalg'an, hurriyat e'lon qiling'an, dedi* (9, 50).

qo'lga olmoq II. (evf. — ko'chimi: kelishmoq, til biriktirmoq) *Shuning uchun birarta darbozabonni qo'lga olib qo'ymog'imiz, albatta, kerak...* (O'K – 240).

Xalq nutqida mavjud evfemalarni o'zini qo'llash bilan chegaralanmagan adib, individual xarakterdagi ifodalarni yaratadi. Quyidagi ifodalar ham shunday o'ziga xos evfemik omonimiyaga misoldir:

ma'nisiz I. (evf. omonimiya — ko'chimi: ersiz) — *Uni qo'yavur, — dedi qizlardan yana biri, — Gulshan opam erini yolg'iz*

tashlab, biz **ma'nisizlarning** ichida yana bir **ma'nisiz** bo'lib yotipti; shunda ham bir ma'ni bormikan? (MCh – 128)

ma'nisiz II. (evf. omonimiya — ko'chimi: fohisha) – Nega ma'ni bo'lmasin, bizga o'xshash **ma'nisiz** ko'payadi (MCh – 128).

ma'nisiz III. (evf. omonimiya — ko'chimi: mazmunsiz, kaltafahm) *Qirilib ket hammalaring... Endi ma'nisizni ko'paytirmayman, tinch uxlalaring* (MCh – 128).

Biroq bu misolning so'nggi varianti (**ma'nisiz III**) yuqoridagi ikki evfemaga nisbatan polisemik xarakterda bog'langan bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas. Harholda, yozuvchining o'quvchi e'tiboriga havola qilayotgan bu kabi jumbog'i omonimiya yoki polisemiya sifatida qaralishini o'rganish lozim bo'lgan masalalardandir.

Ammo, shuni aytilish kerakki, to'la polisemiya javob beruvchi evfemalar yozuvchi ijodidan chetda qolmagan. Masalan, yuqorida sanab o'tilgan o'lim bilan bog'liq evfemalarning ba'zilarida ayni holatni kuzatamiz:

oradan ko'tarmoq I. (evf. — ko'chimi: yo'q qilmoq, o'ldirmoq) *Halig'i Otabek qizg'a uylanib qo'yg'ach, bizning Homid tikanga ag'nab, oradan Otabek bilan Mirzakarim akani ko'tarish fikriga tushkan va bo'lmag'an chaqimchiliklar bilan ularni dor ostig'acha tortishg'a muvaffaq bo'lg'an...* (O'K – 228).

oradan ko'tarmoq II. (evf. — ko'chimi: taxtidan yiqitmoq) *Yo qirilib bitish va yo Azizbekni oradan ko'tarishga fotiha o'qildi.* (O'K – 106); *Qo'shin Toshkanga yetgan ba'dida bizlar tashqaridin va sizlar ichkaridin bo'lib Musulmonqulni oradan ko'targaymiz* (O'K – 270).

Ma'lumki, odob-axloq normasi talabiga ko'ra, qadimdan turmush o'rtog'i, qaynota-qaynonasining va boshqa qarindoshlarning nomini tilga olmaslik, o'zi ijod qilgan maxsus laqab-evfemik nom bilan murojaat etish O'rta Osiyo xalqlarida urf sanaladi. Xususan, o'zbek oilalarida turmush o'rtog'larini bosh farzand nomi bilan atash bugungi kunga qadar saqlangan. Jumladan, "Mehrobdan chayon" romanida buning individual misolini ko'ramiz.

Ra'no I. (ind. evf. — ko'chimi: Nigor oyim) *Maxdum to'nni yoruvqa solib ko'rdi: – Yo'q, adras hayf Ra'no, – dedi to'nni taxtiga solib, – haligi bo'zni beravur.*

Ra'no II. (ind. evf. — ko'chimi: Solix maxdum) *Ra'noning yonig'a Nigor oyim ham qo'shuldi: – Kishi uyalg'uliy bo'lmasin, Ra'no... Nigor oyim yugurib erining orqasidan chiqdi: – Hay, Ra'no! – dedi havlida ketib borg'an maxdumg'a, – nonlarimizning suvi qochqan, xamir qilishg'a vaqt oz, bozordan issig' non oldirasizmi?* (MCh – 80)

"Evfemik omonimiyaga doir" (15, 70–73) masalalar borasida o'zbek tilida yo'l-yo'lakay fikr bildirilib, bugungi kunda rus tilshunosligida ancha quloch yozgan. Uning jahon til sathidagi mavqeyini o'zbek tilshunosligi ham ko'tarib bergan. Xususan, bu Abdulla Qodiriy mahoratini yuzaga chiqaruvchi yana bir omillardan bo'lib xizmat qiladi, desak mubolag'a bo'lmas.

Disfemik omonimiya. Disfemik omonimiya o'rganilmagan. Biroq bunday birliklar evfemizm bilan omonimik munosabat hosil qilish mumkin. Masalan, *xumsa* ifodasi Abdulla Qodiriy ijodida ham evfemik, ham disfemik bo'yoqqa ega bo'lishi kuzatiladi. Har ikkala voqelanish polisemantik bog'lanishga ega. Ulardan biri qo'pol tushunchani yumshatish uchun xizmat qilsa, ikkinchi variantda, aksincha, kishiga nisbatan haqorat, qarg'ish ifodalaydi, salbiy emotsiya uyg'otadi.

xumsa 1 – *disf.* lapshang. *Yuz martaba sizga aytib yotibman-ku, xumsani darbozadan chiqardim, tag'in qanchag'acha orqasidan borib, to karvonlarga qo'shilib ketkuncha kutdim, so'ngra qaytib keldim, deb.* (O'K – 236)

xumsa 2 — *evf.* hezalak. *Binobarin, ularning o'ynab kulishlariga rozi bo'lmag'an odam xumsadir.* (9, 174). Albatta, bunda polisemantiklikning evfemik-disfemik xarakterda ekanligini ta'kidlash lozim.

Adib ijodida til birliklari evfemik va disfemik ma'no ko'lami bilan ham farqlanadi va bu ularni shu asosda tasniflash imkonini beradi. Ayrim evfemik va disfemik vositalar bir ma'nonigina ifodalash uchun qo'llangan bo'lsa, boshqasi bir-biriga yaqin bir necha nutqiy ma'noni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu esa ularni monosemantik va polisemantik evfemik birliklar sifatida guruhlash mumkinligini ko'rsatadi.

Monosemantik evfemizmlar. Monosemantik evfemizmlar, aytilganidek, adib ijodida faqat bir ma'noni ifodalashga xizmat qiladi. Bunday evfemizmlar bir evfemik ma'noni ifodalashga xoslanganligi, ma'no ko'lami o'ta torligi va muayyanligi bilan ajralib turadi. Masalan, o'lim bilan bog'liq evfemik birliklarning aksariyati turg'unlashgan bo'lib, boshqa bir mazmunni anglatmaydi: *Yarim soatdan keyin sko'riy pomosh kelib olib ketdi, jarohati og'ir, ehtimol, qazo qilsa.* (9, 212)

Matn tarkibida ham, matndan tashqarida ham bir evfemik ma'noni bildiruvchi birliklardan yana biri o'limdan keyingi hayot bilan bog'liq ifodalardir: *oxirat, u dunyo.*

Abdulla Qodiriy xalq tilida ishlatib kelingan evfemik ma'noga ega *afifa* (bokira), *ko'ch* (xotin), *holva* (qiz) kabi so'zlardan o'z ijodida unumli foydalanadi. Tushunchaning evfemik ifodalovchisini almashtirishga ehtiyoj sezilmaganligi bois u birgina ma'noni bildirib, vaqt o'tishi bilan bu monosemantik evfemizm sifatida til sathidan o'rin olgan: *Tanisalarigiz kerak, o'rgulay, men mirzo Sultonaning ko'chlari bo'laman...* (MCh – 202); *Toshkandda kimsan, Yusufbek hoji deganning ko'chiman* (O'K – 325). Shuningdek, adib tomonidan gomoseksualizmga xos tushunchalarni ifodalash uchun qo'llangan ayrim evfemik birliklar faqat shu ma'noda «Juvonboz» asarida o'z aksini topadi: *...Rahimjon besoqli bilan sarf qilub, uyig'a o'n-o'n besh kunda kelsa klub, kelmasa, samovar va no'mirlarda Rahimjonni ayshini surib yurar edi* (9, 42). *Sa'dullani qurib ketkur Rahim shayton aldab yo'ldan chiqardi, unga ota ham kerak emas, ona ham kerak emas, uy ham kerak emas, Rahimjon*

besoqli o'lgur bo'lsa bo'ldi (9, 41); Sa'dulla "**Besoqolimni** o'ldirib qo'ysa, qandoq qilaman", deb otni yarim bahosiga sotib, bir necha kun Rahimjonni tabibga ko'rsatmoqg'a boshlab, qancha puli tabibga ketdi. (9, 44) ...ko'pda darsga ishtahasi bo'lmay, doyim umri sheriklari bilan **besoqolbozlik ilmida** o'tub, o'qugan saboqlari "Falonni o'g'li xo'b yetilibdir" (9, 43).

Umuman olganda, evfemizm hodisasi ma'no yuklash, neytral tushunchani yopiq, nozik, yumshoq ifoda etish bilan bog'liq ko'chim ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, bu vaziyatda monosemantik ifodalar salmog'i torayishi kuzatiladi.

Monosemantik disfemik birliklar. Monosemantik disfemik birliklar Abdulla Qodiriy asarlarida ko'plab uchraydi. *Po'kak bosh, sakibedum, soqoling ko'ksingga to'kilsin, to'ng'izxona, qo'tir itning keyingi oyog'i, itdek qirgan, bola tashlar edi* kabi birliklar faqat bir disfemik ma'noda qo'llanganligi bilan xarakterlidir.

Polisemantik evfemizmlar. Polisemiyaga talabiga javob beruvchi evfemizmlar yozuvchi asarlarida ko'p uchraydi. Masalan, yuqorida sanab o'tilgan o'lim bilan bog'liq evfemizmlarning ba'zilarida ayni holatni kuzatamiz:

Oradan ko'tar 1 (yo'q qil, o'ldir) *Halig'i Otabek qizg'a uylanib qo'yg'ach, bizning Homid tikanga ag'nab, oradan Otabek bilan Mirzakarim akani ko'tarish fikriga tushkan va bo'lmag'an chaqimchiliklar bilan ularni dor ostig'acha tortishg'a muvaffaq bo'lg'an...* (O'K – 228).

Oradan ko'tar 2 (yo'q qil, taxtdan yiqit) *Yo qirilib bitish va yo Azizbekni oradan ko'tarishga fotiha o'qildi* (O'K – 106); *Qo'shin Toshkanga yetgan ba'dida bizlar tashqaridin va sizlar ichkaridin bo'lib Musulmonqulni oradan ko'targaymiz* (O'K – 270).

Abdulla Qodiriy *buzilgan* so'zi orqali turli evfemik ma'nolarni ifodalaydi, ularning har biri yagona tushuncha doirasida birlashadi. Ya'ni u nuqsonli, kemtik, biror narsa-hodisaning nosozligiga ishora sifatida qo'llaniladi. Odatda, qiz bolaga nisbatan qo'llanadigan axloqiy nuqsonni anglatuvchi ifodalardan *buzuq* evfemik ma'noli birligi sharoitga nisbatan ham qo'llanilganining guvohi bo'lamiz: 1. *Buzilgan* (bokira emas): *Qizi tushkur jajmondekkina ekan. Hayfki, buzilg'anda...* (9, 299) 2. *Buzuq sharoit* (siyosiy notinch tuzum): *Chunki daholarni yetishtirguchi bosh omil buzuzq sharoit edi* (9, 268).

Shuningdek, polisemik xususiyatga ega *jon bermoq, it tegmoq* kabi evfemik ifodalar ham adib ijodida o'z aksini topadi. *Jon berdi* ifodasi *o'lmoq* ma'nosini ham (*Uch daqiqalik kurashdan so'ng Mutal bo'shshadi, ilgari kuchanishlardan qoldi va bir-ikki daf'a to'lg'anib jimgina jon berdi* (O'K – 247)), va "ahd qilmoq" yoki "qasam ichmoq" ma'nosini ham ifodalaydi. Quyidagi *jon beramiz* evfemik ma'noli birligida "o'lamiz" tushunchasini birmuncha kengaytirib, "qo'limizdan kelgancha harakat qilamiz", "bor kuchimizni ayamaymiz", "o'lamiz", ya'ni "shu yo'lda o'zimizni qurbon qilamiz" kabi ma'nolar anglashiladi: *Bir tomchi qonimiz qolg'uncha yo'lingizda jon beramiz!* (O'K – 33)

It tekkan evfemik ma'noli iborasidagi tushunchada nopok narsa-hodisani obyektga nisbatan qoldirgan izi anglashilib, quyidagi ikki holatda ma'no yaqinligi kuzatiladi:

it tegdi 1 (harom bo'ldi): *Tovoq-qoshiqqa it tegdi* (9, 237).

it tekkan 2 (nomusi toptalgan): – *Albatta, sen aytkanicha, meni olmas. Menga it tekkan, men...* (MCh – 132).

Polisemantik evfemizmlar ko'chma ma'noning xarakteriga ko'ra ham ichki tasnifiga ega bo'ladi. Bunda ma'no ko'chimning qanday asosda ekanligi bilan e'tiborli. Shu boisdan polisemantik evfemizmlardagi ko'chma ma'no metaforik, metonimik, sinekdoxik, vazifadoshlik, kinoyaviy kabi turlarga ajratilishi mumkin.

Metaforik evfemizm. “Metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik barcha majoziy ifodalarning, jumladan, troplarning (evfemizmlarning ham) shakllanishida asos bo'lib xizmat qiladigan usullar – ma'no ko'chish yo'llaridir” (12, 47). Shunday ekan, evfemizatsiya jarayonida ko'chimning ayni turi ko'p o'rinlarda xizmat qiladi. Adibning bo'yin bilan bog'liq evfemik birliklari muayyan ma'noda nisbiy ekanligi anglashiladi. Jumladan, *bo'yin egmoq*, *bo'yni yo'g'on* kabi ifodalarida kishining jismoniy holati o'z o'rnida ma'naviy holatiga nisbatlanadi:

bo'yin egmoq (taslim bo'lmoq): *Manga o'xshash bo'ynini ekan xumsalaring juda ko'p ekan* (9, 288).

bo'yni yo'g'on (zo'ravon): *Mahalla-ko'ylarimizda bitta-bitta bo'yni yo'g'on – bo'yni g'avslar borlig'ini har bir kimsa bilur va ularning mahalla ijtimoiyotida o'ynayturg'an ro'llari katta kichikka belgulikdir* (9, 140). Shuningdek, kalta kiyingan qizlarga nisbatan qo'llangan *dumsiz*, *pinhon*, *sirli ravishda* qilinaajak yumushlarga nisbatan ishlatilgan *yeng ichida* evfemik ifodalari, «gunoh» tushunchasining evfemik ifodasi hisoblanmish *yoziq* birligi metaforik xarakterga egaligi bilan ajralib turadi.

Metonimik evfemizm. Narsa-hodisalarni makon va zamondagi o'zaro bog'liqligi asosida qayta nomlash adibning so'z qo'llay olish borasidagi yana bir mahoratidir. Ayniqsa, spirtli ichimliklar bilan bog'liq evfemizmlarning ayrimlarida uning yaratilishi, foydalanish xususiyatiga ko'ra ko'chim qabul qilgan *dori*, *zahar* ifodalari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ularning ma'no ko'lami kengligi spirtli ichimlikning tavsifi, ta'rifi, xususiyati bilan bog'liq. Masalan: – *Uxlag'anim yo'q, hez, doringni quy-chi!* (O'K – 157); – *Bir vaqt osh-suvdan qutulib Norpochchaxonim minan bir piyola zaharni ichib o'ltursam, eshikdan nortuyadek bo'rtib ikkita yallachi o'lgur kevotti* (9, 359).

Abdulla Qodiriy yuqori lavozimlarda ishlaydigan, so'zini o'tkaza oladigan kishilarni anglatuvchi «*katta*» evfemik birligidan metonimik ko'chim sifatida foydalanadi. Bunga yuqorida misollar keltirilgan edi.

Adibning *kelim* ifodasi ham metonimik evfemizmdir: *Birar joydan kelim bo'lmag'anliqdan bu oila ko'p tanglikka tushib, oxirida Solih maxdum tahsilni tark etishga, qorin to'ydirarliq bir kasb izlashka majbur bo'ladi* (MCh – 9).

Sinekdoxik evfemizm. Qismni butun bilan atash, butunni qism bilan atash evfemik ko‘chimda ham mavjud. Xususan, Abdulla Qodiriy ijodida buning xarakterli namunalarini ko‘ramiz. Masalan, *tuyoq* so‘zining hayvonlarga nisbatan ishlatilishi ma‘lum. Biroq adib bu so‘zni evfemik shaklda qo‘llab, “yolg‘iz farzandlik” tushunchasini yumshoqroq ifodalashda foydalanadi: *Ammo siz hurmatlularg‘a ma‘lumdir, bizning shul Otabekdan o‘zga farzandimiz bo‘lmay, dunyoda o‘zimizdan keyin qolaturg‘on tuyoqimiz va ko‘z tikkan orzu-havasimiz, umid hadafimiz faqat shul Otabekdir*” (O‘K – 141).

Sinekdoxik evfemizmga *turmadi* ifodasini misol qilib olish mumkin. Homilaning tushib qolishini, tug‘ilmasdan burun nobud bo‘lishni anglatib kelgan ayni ifodadan bolaning turmaganligi haqida fikr ketayotganligi ayon bo‘ladi: – *Marg‘ilonliq xotiningizdan bolangiz bordir? – Yo‘q... – Bo‘lsa ham turmadimi, uylanganingizga ancha bo‘ldi shekillik? – Turmadi* (O‘K – 285).

Adib asarlarida “xufiyalar” tushunchasi *quloqlar* birligi vositasida ham ifodalangan: *Yorqori yevg‘a quloqlardan olingan “qarzlari” kifoya qilmaydi, chunki, “ehtiyoj” zo‘r...* (9, 387); ***Quloqlar ishi, degan mulohazani bildiradi*** (9, 395).

Vazifadoshlik asosidagi evfemizm. Bu tur ko‘chish ham o‘xshashlikka asoslanadi. Biroq bu yerda vazifa o‘xshashligiga tayaniladi. Foydani teng bo‘lib olish haqida tushuncha berayotgan *arra* ifodasi ham shu kabi vazifadoshlik asosida vujudga kelgan evfemik birliklar qatoridan o‘rin oladi: *Shaharda mashhur ishonchliq muttahaamlardan iborat kamisiyoni magazin ochildi... Kamisiya haqi juda arzon: sotib berilgan molning oqchasi arra* (9, 97).

Kinoyaviy evfemizm. Kinoya – so‘zni teskari ma‘noda ishlatish. Kinoyadagi so‘z hozirgi imloda, odatda, qo‘shirnoqda beriladi. Bu Abdulla Qodiriy mahoratini namoyon qiluvchi o‘ziga xos usuldir. Ko‘p o‘rinlarda shaxsni anglatib kelgan *bo‘ydoqlar* (turmushga chiqmagan qizlar), *yigit* (nomard), *qadrlik mehmon* (kutilmaganda tug‘ilgan chaqaloq) evfemik kinoyaviy ifodalari teskari mazmunda qo‘llanilishi kuzatiladi. Inson sifatini bildirib kelgan *viydonli* (viydonsiz), *kelishkan* (beo‘xshov), *husni Yusuf* (xunuk) ifodalari asl muddaoni ochiq aytishdan “qutqargan” ko‘chim sifatida adib asarlaridan o‘rin oladi. Shuningdek, intim munosabat bilan bog‘liq tushunchalarning ham evfemik ifodasidan kinoyaviy tarzda foydalanishda adibning mahorati namoyon bo‘ladi: izzat, hurmat» (intim munosabat): *Shuning uchun anvo‘i erkalikka, necha xil mukayifotka, rang-barang izzat, hurmatka o‘rgangan ko‘ngli bu xaridorsizlik balosiga tuz sepkan yaradek achir edi.* (MCh – 67).

Xulosa qilib aytish mumkinki, Qodiriy asarlarida turli ko‘chimlar asosidagi evfemizmlar ko‘plab uchraydi. Ayniqsa, metaforik va metonimik asosli evfemik ma‘noli birliklarning qo‘llanilishi sermahsul. Shu bilan birgalikda, faktik materiallar nutqda sinekdoxik va vazifadoshlik asosidagi evfemizmlar ham uchrashini ko‘rsatdi. Bu esa evfemik hosila ma‘no, professor M.

Mirtojiev ta'kidlaganidek, faqat metaforik va metonimik asosdagina emas (10, 125), balki sinekdoxik va vazifadoshlik ko'chim usullari asosida ham vujudga kelishini dalillaydi. Bu masala hali kelgusi tadqiqotlarda o'zining ilmiy yechimini topishi lozim.

Polisemantik disfemik birliklar. Abdulla Qodiriy qo'llagan disfemik birliklar birdan ortiq ma'no bildirishi bilan ham ajralib turadi. Quyidagi faktik materiallar fikrimizni tasdiqlaydi.

Metaforik asosli disfemik birliklar. Abdulla Qodiriy asarlarida metaforizatsiya muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, metaforik va metonimik nominatsiya alohida mavqega ega. Adibning aksariyat disfemik birliklari insonni ko'pincha biror hayvonga o'xshatish asosidadir. Yuqorida tahlil qilingan *it* so'zi bilan bog'liq tushunchalarning zamirida aslida o'xshatish yotadi: *Birinchi may – butun dunyo mehnatkashlarining birlashkan bayrami, butun dunyo ifloslarining bir-birlari bilan it-mushuk bo'lib ajrashgan kunidir* (9, 156). Ma'no ko'chishning bunday usuli adib asarlarining bir necha o'rinlarida o'z aksini topadi: *Ammo menga qolsa, u xumpar (Otabekni aytadir) Marg'ilonda xotini borlig'ini ham unutib yuborg'an, deb o'ylayman* (O'K – 237). Shaxsni anglatuvchi otning bu kabi disfemik haqorat shaklidagi varianti aksariyat hollarda salbiy qahramonlar tilida, nutqiy madaniyatsizlik natijasida yuzaga kelganligini ko'rish mumkin.

O'xshatishning *-dek, xuddi* kabi vositalaridan foydalanish hollari ham mavjud: *Barakalla, g'ayratlaringizga, – dedi Azizbek, – bu kun qipchoqlag'a rustamona javob berib, o'zlarini ham itdek qirg'ansiz* (O'K – 81); *Bir vaqt osh-suvdan qutulib, Norpochchaxonim minan bir piyola zaharni ichib o'ltursam, eshikdan nortuyadek bo'rtib ikkita yallachi o'lgur kevotti* (9, 359); *Ey-y, bolshevoyning uyi kuysun, hoji pochcha, xuddi tosh-metin, padar la'nati!* (9, 101)

Adibning va'z o'qimoq, ayyuhannos solmoq tushunchalarni anglatib keladigan *hangrashaber*moq disfemik birligi ham eshakning xatti-harakati bilan bog'liq: *“O'tkan 25-yil samovor — choyxonalarda Puchuqqori va kuchukqorilar patnus qo'lda, maqsad pulda hangrashaberib bizni juda bezor qildilar. Endi 26-yil, albatta, shu eshaklarni no'xtalab bersin!” – deydi* (9, 264).

Metonimik asosli disfemik birliklar. Biror tushunchani ifodalovchi birlikni tushirib, unga bog'liq boshqa birlik asosida fikrni ifodalash Abdulla Qodiriyning disfemik birliklar yaratishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, shaxsni o'z nomi bilan emas, balki uning biror sifatini bildiruvchi so'z bilan atash ham adib ijodida ko'plab uchraydi: *Nekalay davrida turkistonliklar temiryo'l cho'chqalaridan qanday turtilgan-surtilgan bo'lsalar, 23-yilda ham undan battaroq turtilabersunlar* (9, 127). Bu o'rinda temiryo'l nazoratchilari nazarda tutilayotgan bo'lsa-da, zimdan mustamlakachilar xususida fikr yuritilayotganligi anglashiladi. Bu ifodaning sinonimi hisoblanmish *to'ng'iz* birligi ham yuqoridagi fikrni isbotlovchi mazmuni o'zida aks ettirib kelganligini ko'rish mumkin: *Bobolarning muqaddas gavdasi madfun (dafn qilingan)*

Turkistonimizni to'ng'uzxona qilishg'a hozirlang'an biz itlar yaratguchining qahrig'a, albatta, yo'liqarmiz (O'K – 294).

Sinekdoxik asosli disfemik birliklar. Ko'chimning bu shakli ham adib asarlarida uchraydi. Bunda inson tanasidagi bir a'zo yoki shu a'zo ustida yuz bergan voqelik atamasi inson yoki insonni butunligicha qamrab olgan voqelikni ifodalaydi. Sinekdoxaning bir ko'rinishi hisoblanmish ayni jarayon *ko'zi chiqmoq* birligida o'z aksini topadi: *Hay-hay qanday yaxshi... bu dunyodan qadri yo'q musulmon og'a-inilarning u dunyoda bunday rohat bilan kun kechirishlariga hasad qilg'uchi kofirlarning ko'zi chiqsun* (9, 137). *Ko'zi chiqmoq* disfemik birligi qarg'ish kayfiyatini uyg'otishi bilan bir qatorda insonga o'lim tilashni ifodalaydi. *Ko'zi chiqib o'lsin* ifodasining qisqa varianti bo'lgan *ko'zi chiqsin* sinekdoxik asosli disfemik birlik sifatida namoyon bo'ladi. *Soqoling ko'ksingga to'kilsin* ifodasi ham sinekdoxik ko'chim asosidagi disfemik birlikka misol bo'la oladi.

Vazifadoshlik asosidagi disfemik birliklar. Abdulla Qodiriy ishlatgan *shung'iya* ifodasining kelib chiqishi ham uning asl vazifasi bilan bog'liq bo'lib, bu boshqa ekinlar ildizidan oziqlanadigan tekinox'r yovvoyi o't ekanligiga ishoradir. Ishonchni oqlamaslik, noshud, xiyonatkor, birovlar hisobidan kun ko'radigan insonlarga nisbatan adibning ayni ifodasi haqiqatda vazifadoshlik asosidagi disfemik birlik sifatida namoyon bo'ladi: – *Qovun deb ekkanimiz shung'iya bo'lib chiqdi* (9, 140).

Xulosa. O'zbek tilida evfemik vositalar turli ko'rinishlarga ega. Ularni ma'lum bir muhim belgilari asosida turli tomondan tasniflash o'zbek tili lisoniy imkoniyatlaridan foydalanish mahoratini ochishda asos bo'lib xizmat qiladi. Evfemik vositalarning mavzuviy rang-barangligi, semantik ko'lamdorligi, shakliy xilma-xilligi tasnif jarayonida muayyanlashdi.

O'zbek tilidagi evfemizmlar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra tasnif qilinganda, ularning turlari uch xil ekanligi aniqlandi: a) ma'nodosh evfemizmlar; b) shakldosh evfemizmlar; g) zid ma'noli evfemizmlar.

Evfemizmlarning ayrimlari faqat bir ma'noni anglatishi ma'lum bo'ldi. Dalillar evfemizmlarning ba'zilar obyektiv voqelikdagi turli hodisalarni ifodalash uchun qo'llanganligini ko'rsatdi. Shunga ko'ra, monosemantik va polisemantik evfemizmlar farqlandi.

Polisemantik evfemalar ko'chimning turlariga ko'ra, metaforik, metonimik, sinekdoxik, vazifadoshlik va kinoyaviy asosdagi turlarga ajraladi.

Disfemik ma'no va disfemizatsiya evfemik ma'no va evfemizatsiyaga zid turadi. Bunga disfemizatsiya hodisasining ba'zan ijtimoiy, ba'zan esa individual stereotiplar bilan bog'lanishi sabab bo'ladi. Disfemizatsiya leksemalarning nutqiy differentsiyasini ham keltirib chiqaradi. Bu esa, o'z navbatida, nutqiy ma'nodoshlik qatorining boyishini ham ta'minlaydi.

Disfemizmlar evfemizmlar bilan munosabatchilik bo'lganligi sababli ular tasnifida ham evfemizmlar tasnifidagi kabi ayrim omillar tayanch bo'lib xizmat qiladi. Adib asarlaridagi disfemik ma'noli birliklar o'zaro ma'noviy munosabatda ham bo'ladi. Ayniqsa, ular sirasida nutqiy xarakterdagi ma'nodoshlik, zid ma'nolilik holatlari e'tiborga molik.

Disfemik birliklar ma'noviy ko'lami jihatidan ham o'zaro farqlanadi. Ayrim disfemik birliklar faqat bir ma'noda qo'llansa, boshqalari matn va qurshov talabi va ko'magida turli ma'nolarni ifodalashi mumkin. Shu sababli disfemik birliklar ma'no qamroviga ko'ra monosemantik va polisemantik birliklarga bo'linadi.

Disfemik metaforizatsiya muhim o'rin tutadi. Metaforik nominatsiya, metonimik nominatsiya, sinekdoxik nominatsiya kabilar asosidagi disfemizmlar o'zbek tilida ko'plab uchraydi. Ayniqsa, metaforik va metonimik nominatsiya alohida mavqega ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. — М.: Сов. энциклопедия, 1969. — 137 с.
2. Исмагуллаев Н. Ўзбек тилидаги эвфемизмлар ва уларнинг классификациясига доир. //Ўзбек тили ва адабиёти. 1-сон. — Т.: Фан, 1964. — 352 б.
3. Исмагуллаев Н. Ҳозирги ўзбек тилида эвфемизмлар. ТошДПИнинг “Илмий асарлар”и, 42-т., 1-китоб. — Тошкент. 1963. — 160 б.
4. Исмагуллаев Н. Эвфемизмларнинг луғат составини ва сўз маъноларини бойитишдаги аҳамияти. ТошДПИнинг “Илмий асарлар”и, 2-китоб, — Тошкент. 1964. — 156 б.
5. Исмагуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке. Автореф.дисс. ...канд.филол.наук. — Т., 1963. — 119 б.
6. Кадирова, Х. (2023). Этнокультурная особенность эвфемизмов и дисфемизмов в переводе// *Язык и культура Узбекистана*, 5 (1), 128–137. <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-cultural/article/view/50>
7. Кадирова Х. Б. ИмPLICITное выражение эвфемических и дисфемических явлений в узбекском художественном тексте.// XXXI International Multidisciplinary Conference “Innovations and Tendencies of State-of-Art Science”. Proceedings of the Conference (May, 2023). Mijnbestseller Nederland, Rotterdam, Nederland. 2023. — С. 106-111. https://www.researchgate.net/publication/371417295_implicitnoe_vyr_azenie_evfemiceskih_i_disfemiceskih_avlenij_v_uzbekskom_hudozestvennom_tekste
8. Кадирова Х. Б. Эвфемико-дисфемистические значения в пересечении структурно-прагматического анализа // Международный научный обзор проблем философии, психологии и педагогики // Boston. USA. January 28-29, 2020. — С. 19-23. URL:<https://scientific->

conference.com/images/PDF/2020/16/euphemic-dysphemistic-values.pdf

9. Қодирий А. Диёри бакр. — Т.: Янги аср авлоди, 2007. — 458 б.
10. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. — Тошкент: Мумтоз сўз, 2011. — 125.
11. Омонтурдиев А. Бир сўз луғати. — Термиз: Жайхун, 1996. — 48 б.
12. Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эвфемикаси. Филол.фан.д-ри. ...автореф. Т., 2009. — 52 б.
13. Омонтурдиев А. Ўзбек нутқининг эвфемик асослари. — Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2000. — 128 б.
14. Омонтурдиев А. Ж. Эвфемик воситаларнинг функционал хусусиятлари. Филол.фан.номзод...дис. — Т., 1997. — URL: <https://cheloveknauka.com/evfemik-vositalarning-funksional-uslubiy-hususiyatlari>
15. Омонтурдиев А.Ж. Эвфемик омонимияга доир// Тилшуносликнинг долзарб масалалари. 1-қисм. — Т.: Университет, 2002. — Б. 70–73.
16. Потапова Н. М. Краткий обзор некоторых исследований эвфемизмов // Язык, сознание, коммуникация: Сб.статей. Вып. 34. — М.: МАКС Пресс, 2007. — 108 с.
17. Резанова А. Н. Дисфемия в английском языке: семантические механизмы и прагматические функции: Автореф...дисс. канд. филол. наук. — Санкт-Петербург, 2008. — 20 с.
18. Шамсиддинов Ҳ. Сўзларнинг эвфемик функционал-семантик синонимлари // Ўзбек тили ва адабиёти. —1997. — № 6. — 74 б.

Referenses

1. Axmanova O.S. *Slovar lingvisticheskix terminov* (Dictionary of linguistic terms), Moscow: Sov. ensiklopediya, 1969, 137 p.
2. Ismatullayev N. *Uzbek tili a adabiyoti. 1-son* (Uzbek language a literature. No. 1.), Tashkent: Fan, 1964, 352 p.
3. Ismatullayev N. *Hozirgi o'zbek tilida evfemizmlar* (Euphemisms in Modern Uzbek. Toshdpi's "Scientific Works", Part 42, Book 1), Tashkent, 1963, 160 p.
4. Ismatullayev N. *Evfemizmlarning lug'at sostavini va so'z ma'nolarini boyitishdagi ahamiyat* (The Importance of Euphemisms in the Enrichment of Dictionary Sostavini and Word Meanings. "Scientific works" of Tashkent, Book 2), Tashkent, 1964, 156 p.
5. Ismatullayev N. *Evfemizmi v sovremennom uzbekskom yazike. Avtoref.dis...kand.filol.nauk* (Euphemisms in the Modern Uzbek Language), abstract of the dissertation. ...candidate of Philological Sciences, Tashkent, 1963, 119 p.
6. Kadirova, X. *Yazik i kultura Uzbekistana*, 5 (1), 2023, 128–137, available at: <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-cultural/article/view/50>

7. Kadirova X. B. *31th International Multidisciplinary Conference "Innovations and Tendencies of State-of-Art Science"*, Proceedings of the Conference (May, 2023). Mijnbestseller Nederland, Rotterdam, Nederland. 2023. pp. 106-111, available at: https://www.researchgate.net/publication/371417295_implicitnoe_vyr_azenie_evfemiceskih_i_disfemiceskih_avlenij_v_uzbekskom_hudozes_tvennom_tekste
8. Kadirova X.B. *International scientific review of the problems of philosophy, psychology and pedagogy*, Boston. USA. January 28-29, 2020, pp. 19-23, available at: <https://scientific-conference.com/images/PDF/2020/16/euphemic-dysphemistic-values.pdf>
9. Qodiriy A. *Diyori bakr*, Tashkent: Yangi asr avlodi, 2007, 458 p.
10. Mirtojdiyev M. *O'zbek tili semasiologiyasi* (Semasiology of the Uzbek Language), Tashkent: Mumtoz so'z, 2011, 125 p.
11. Omonturdiyev A. *Bir so'z lug'ati* (One Word Dictionary), Termiz: Jayxun, 1996, 48 p.
12. Omonturdiyev A. *Professional nutq evfemikasi* (Professional speech euphemics), Extended abstract of Doctor's thesis, Tashkent, 2009, 52 p.
13. Omonturdiyev A. *O'zbek nutqining evfemik asoslari* (Euphemic foundations of Uzbek speech), Tashkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000, 128 p.
14. Omonturdiyev A.J. *Evfemik vositalarning funksional xususiyatlari* (Functional properties of euphemic agents), candidate's thesis, Tashkent, 1997, available at: <https://cheloveknauka.com/evfemik-vositalarning-funksional-uslubiy-hususiyatlari>
15. Omonturdiyev A. J. *Tilshunoslikning dolzarb masalalari. 1-qism.* (Current issues of linguistics. Episode 1), Tashkent: Universitet. 2002, pp. 70–73.
16. Potapova N. M. *Yazik, soznanie, kommunikatsiya*, issue 34. Moscow: MAKS Press, 2007, 108 p.
17. Rezanova A. N. *Disfemiya v angliyskom yazıke: semanticheskie mexanizmi i pragmaticheskie funksii* (Dysphemism in English language: semantic mechanisms and pragmatic functions) Extended abstract of candidate's thesis, St. Petersburg, 2008, 20 p.
18. Shamsiddinov H. *Uzbek language and literature*. 1997, No. 6., 74 p.), St. Petersburg, 2008, 20 p.
19. Shamsiddinov H. *O'zbek tili va adabiyoti*, 1997, No. 6., 74 p.